O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo`lyozma huquqida

**UDK:** 334.75:330.3(575.1)

**JO`RAEV QAXRAMON XASANOVICH**

# HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH VA UNDA TIJORAT BANKLARINING ROLINI OSHIRISH

(ATB "Xalq bank"i Toshkent viloyat, Qibray filiali misolida)

**5A230102 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo`yicha)
mutaxassisligi bo`yicha
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**
**i.f.d., prof Salimov B.T.**

**Toshkent – 2018 yil**

Magistrlik dissertatsiya hududlarda kichik biznesni rivojlantirish va unda tijorat banklarining rolini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish bosqichlari, mohiyati va ahamiyati, kichik biznesni va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati o`rganilgan. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ustuvor yo`nalishlari tahlili, ATB "Xalqbank"ning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi faoliyati tahlili amalga oshirilgan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ustuvor yo`nalishlarini takomillashtirish bo`yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

In this dissertation it has been learned using foreign investments in the small business. Its role and the necessity of effectively organizing it, the system of indicators of using small business of the Republic of Uzbekistan and the analyse theoretical tasks about foreign investments. It has been analysed the factors determining construction house and recommendations has been given in order to organize the effective enhancing competitiveness foreign investments in the small business. It was invited some advice using foreign investments in the small business.

Magistrlik dissertatsiya ishi "Sanoat iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki himoyadan o`tgan.

36 sonli bayonnoma "30" mai 2018 y.

Kafedra mudiri ________ i.f.n., dotsent Xotamov I.

Ilmiy rahbar: i.f.d., professor Salimov B.T. ________ 01.05.18

imzo sana

Magistr: Jo`raev Q. ________ 01.05.18

imzo sana

IMZONI TASDIQLAYMAN
TDIU XOD. BO`LIMI
IMZO

**"Himoyaga ruxsat etildi"**

"Sanoat iqtisodiyoti" kafedrasi

mudiri, dotsent Xotamov I.S. ________

"26" 05 2018 y.

Himoya Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida

2018yil "26" mai soat "14" "da bo`ladi

MUNDARIJA:

**Kirish...................................................................................................... 3**
**I-Bob. Mintaqalarda tadbirkorlik sub`ektlari faoliyatini rivojlantirishda bank kreditlaridan samarali foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari..... 9**
1.1 Mintaqalarda tadbirkorlik sub`ektlari faoliyatini rivojlantirishda banklar kredit siyosatining ahamiyati va uning mohiyati.............................................. 9
1.2. O`zbekiston mintaqalarida tadbirkorlik sub`ektlari faoliyatini rivojlantirishda amalga oshirilgan pul-kredit siyosati........................................ 21
1.3. Mintaqalarda kichik biznesni rivojlantirishning xorijiy tajribalari .......... 31
1-bob bo`yicha xulosalar.................................................................................. 42

**II-Bob. O`zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ustuvor yo`nalishlari tahlili...................................................................................................... 44**
2.1. O`zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishining asosiy yo`nalishlari tahlili........................................................ 44
2.2. O`zbekiston Respublikasida faol investitsiya siyosatining amalga oshirilishi tahlili.............................................................................................. 54
2.3. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini shakllanishida ATB Xalq bankining o'rni va faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari................ 62
2-bob bo`yicha xulosalar.................................................................................. 69

**III bob. Mintaqalarda tadbirkorlik sub`ektlari faoliyatini rivojlantirishda bank kreditlaridan foydalanish samaradoligini oshirish yllari.. 71**
3.1 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda bank kreditlaridan samarali foydalanishning ilg`or xorijiy mamlakatlar tajribasini joriy qilish...... 71
3.2. Mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda kredit resurslaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari .................................. 77
3.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida investitsiya siyosatini amalga oshirishning istiqbolli yo`nalishlari 82
3-bob bo`yicha xulosalar.................................................................................. 90

**Xulosa va takliflar........................................................................................ 92**
**Foydanilgan adabiyotlar ruyxati....................................................................... 99**

# KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi.** Jahonning ko`plab davlatlarida hali-hanuz moliyaviy-iqtisodiy inqirozning og`ir asoratlari kuzatilayotgan bir paytda oxirgi o`n yilda respublikamizda yalpi ichki mahsulot hajmi o`sishi 8 foizdan kam bo`lmayotgani quvonarli holdir.

Iqtisodiyotda tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga yaratilayotgan imkoniyatlar katta ahamiyatga ega. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta`minlash, xususiy mulkni himoya qilish va uning daxlsizligi kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish yo`lidagi byurokratik to`siqlarni bartaraf etish, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida 2016 yil 5 oktyabrida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4848-son "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta`minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi Farmoni e`lon kilinganligi milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta`minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko`rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini yanada ko`paytirishga asos bo`ladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida"gi Farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo`yicha ustuvor yo`nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017 - 2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi.[1] Ushbu Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo`nalishlari alohida muhim o`rin egallaydi.

Hududlarda kichik biznesni rivojlantirish va unda tijorat banklarining rolini oshirishda mamlakat pul-kredit siyosatining o`rni katta.

---

[1] O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida"gi Farmoni 7 fevral 2017 yil. http://press-service.uz/uz/document/5482